

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT - 2026



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
DSc, professor (O'zbekiston)
Sirojiddin Xo'jaqulov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Turobov Abdurahim
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
DSc, professor (O'zbekiston)
Muhammadiyev Ahadjon
DSc, dotsent (O'zbekiston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Nurova Gulchehra
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayev Normuhammad
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Umurova Go'zal
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)

Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)

Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)

Сирожидин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)

Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухигдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)

Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)

Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)

Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)

Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)

Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)

Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)

Сирожидинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)

Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)

Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)

Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA УЗБЕКСКО-ТАДЖИКСКИЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ СВЯЗИ XX ВЕКА.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122



Roxila RUZMANOVA


Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti, f.f.n (Samarqand, O‘zbekiston)

E-mail: roxilaruzmanova694@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6539-0511

TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI

For citation: Ruzmanova Roxila. A PROMINENT RESEARCHER OF THE TURKIC WORLD. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412153>

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayoti va ijodining Turkiyada o‘rganilishi, shoir asarlari yuzasidan izlanish olib borgan turk olimlari tadqiqotlariga to‘xtalangan. Buyuk mutafakkir shoir va davlat arbobi hazrat Mir Alisher Navoiy adabiy merosini keng tatqiq va targ‘ib etish maqsadida Turkiyadagi Bashkent universiteti huzurida tashkil etilgan “Alisher Navoiy tadqiqot markazi” va ushbu markazni tashkil etishda rahbarlik qilgan prof.Abdurahmon Guzal ustozning navoiyshunoslik hamda turk dunyosi masalalariga oid tadqiqotlari yoritildi. Shuningdek, navoiyshunos olim Abdurahmon Guzal tashabbusi va tavsiyasi, tayyorlagan namunasi asosida Turkiyaning poytaxti Anqara shahrida o‘rnatilgan Alisher Navoiy haykali haqida ma’lumot berildi. Prof.Dr.Abdurahmon Guzal ilmiy faoliyatiga to‘xtalinib, navoiyshunoslik va turkologiya sohasidagi faoliyati yoritildi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, tadqiqot markazi, turk dunyosi, navoiyshunoslik.

Рохила РУЗМАНОВА

доцент Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова, к.ф.н. (Самарканд, Узбекистан)

e-mail: roxilaruzmanova694@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6539-0511

КРУПНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ТЮРКСКОГО МИРА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается изучение жизни и творчества Алишера Навои в Турции, а также анализируются исследования турецких учёных, посвящённые произведениям поэта. С целью всестороннего исследования и популяризации литературного наследия великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Мир Алишера Навои при Башкентском университете в Турции был создан «Центр исследований Алишера Навои». В статье освещается деятельность данного центра, а также научные исследования в области навоиеведения и проблем тюркского мира, проводимые под руководством профессора Абдурахмана Гюзала, сыгравшего важную роль в создании центра. Кроме того, приводится информация о памятнике Алишеру Навои, установленном в столице Турции — городе Анкара по инициативе, рекомендации и на основе подготовленного проекта учёного-навоиеведа

Абдурахмана Гюзала. Также рассматривается научная деятельность профессора Абдурахмана Гюзала и освещается его вклад в развитие навоиеведения и тюркологии.

Ключевые слова: Алишер Навои, исследовательский центр, тюркский мир, навоиеведение.

Roxila RUZMANOVA

Associate Professor, Sharof Rashidov Samarkand State University, PhD in Philology (Samarkand, Uzbekistan)

E-mail: roxilaruzmanova694@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6539-0511

A PROMINENT RESEARCHER OF THE TURKIC WORLD

ABSTRACT

This article examines the study of the life and works of Alisher Navoi in Turkey and discusses the research conducted by Turkish scholars on the poet's literary heritage. In order to widely study and promote the literary legacy of the great thinker, poet, and statesman Mir Alisher Navoi, the "Alisher Navoi Research Center" was established at Bashkent University in Turkey. The article highlights the activities of this center and the studies related to Navoi scholarship and issues of the Turkic world conducted under the leadership of Professor Abdurahman Guzal, who played a key role in its establishment. In addition, information is provided about the monument to Alisher Navoi erected in Ankara, the capital of Turkey, based on the initiative, recommendation, and design prepared by the Navoi scholar Abdurahman Guzal. The article also discusses the academic activities of Professor Dr. Abdurahman Guzal and highlights his contributions to Navoi studies and Turkology.

Keywords: Alisher Navoi, research center, Turkic world, Navoi studies.

Turk dunyosining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining barhayot siymolaridan bo'lib, shoir adabiy merosini tadqiq etish va bu boy merosdan turkiy xalqlar ma'naviy dunyosini bahramand qilish bugungi kunda har birimizning muqaddas vazifamizga aylanib bormoqda. Ulug' shoir shaxsiyati va asarlarini o'rganish so'nggi yillardagi tadqiqotlardan keng o'rin olayotganligi barchamizga ma'lum. Kuni kecha hazrat Alisher Navoiy bobomiz tavalludining 584 yilligini nishonlash sababi bilan yurtimizda o'tkazilgan xalqaro va respublika konferensiyalarida taqdim qilingan ilmiy kuzatishlar natijalari, chop etilgan ensiklopiyalar, xorijiy navoiyshunoslarning chiqishlari kunimizda navoiyshunoslikning yanada yangi bosqichga ko'tarilayotganligining yaqqol namunasidir. Yurtimizda navoiyshunoslik borasida amalga oshirilayotgan ulkan ilmiy-amaliy ishlar qatorida turk qardoshlarimiz tomonidan ham salmoqli tadqiqotlar, jahon navoiyshunosligi ahamiyatiga molik ilmiy izlanishlar va monografiyalar yaratilayotganligi quvonarli holdir.

Mana shunday ahamiyatli ishlardan biri Turkiyadagi Boshkent universitetida 2022-yil 10-fevralda tashkil etilgan "ALİ ŞİR NEVAİ Araştırma ve Uygulama Merkezi (Alisher Navoiy tadqiqot markazi)"dir. Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi prof.Dr. Abdurahmon Guzel ustoz tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, Hazrat Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan turkiy tilning dunyo tillaridan ustunligi haqidagi tushunchasini munosib baholash va davom ettirish kabi ezgu maqsad yo'lida vujudga keldi.

Ushbu markaz faoliyati boshlangach, 5 oy ichida "I. Uluslararası Ali Şir Nevai'nin Eserleri ve Kültürel Değerleri Sempozyumu (Alisher Navoiy asarlari va madaniy merosi)" mavzusidagi xalqaro simpoziumni o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Samarqand davlat universitetining bir qator navoiyshunos olimlari ushbu tadqiqot markazining ochilishi haqidagi xabarni eshitib, bag'oyat quvongan edik. Markaz tomonidan qisqa fursatda tashkil etilgan xalqaro simpoziumda samarqandlik professor-o'qituvchilardan I.K.Mirzayev "Bertels, Bilimsel Nevayi Çalışmalarının Kurucusudur" mavzusida, D.Salohiy "Nevai Sözlerinde Eski Türk Şiir Geleneklerinin Geliştirilmesi", R.Ruzmanova "Ali Şir Nevayi'nin Dünya Edebiyatındaki Edebi Mirasının İncelenmesi" mavzularida ma'ruzalari bilan online ishtirok etib, ushbu konferensiya tashkilotchisi prof.Abdurahmon Guzel

ustoz bilan tanishgan edik. Prof.Dr.Abdurahmon Guzel ustoz bu simpoziumda “Hayretü'l-Ebrar'da Tasavvufi Unsurlardan Örnekler” mavzusida ma'ruza qilib, Alisher Navoiy qalamiga mansub “Hayrat -ul abror” asarining tarbiyaviy, tasavvufiy ahamiyati haqida ma'ruza qilgan edilar. Keyinchalik, 2024-yil 9-fevralda ustoz universitetimizga tashrif buyurib, Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi munosabati bilan talabalarimizga qimmatli ma'lumotlar berish bilan birga, Turkiyada navoiyshunoslik borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, ularning ahamiyati haqida so'zlab bergandilar. Olimga turkiyalik professorlar Hamiye Duran va Nihal Yavuzlar hamrohlik qilishgandi.



Ustoz tashrifi davomida Samarqand davlat universiteti Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati bilan ham yaqindan tanishib, hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Abdurrahmon Guzel ustoz SamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, professor, navoiyshunos olim Ibodulla Mirzayev bilan uchrashib, ilm-fan sohasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasida kelishdi. Shuningdek, Ibodulla Mirzayev bosh muharrirligidagi “Alisher Navoiy” xalqaro jurnali haqida fikr yuritildi. Ikki ulug' olim suhbatida qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik, navoiyshunoslik sohasidagi yangiliklar, yechimini kutayotgan muammolarga to'xtalindi. Ustoz, bizga “I. Uluslararası Ali Şir Nevai'nin Eserleri ve Kültürel Değerleri Sempozyumu (Alisher Navoiy asarlari va madaniy merosi)” mavzusidagi xalqaro simpozium to'plamini ham keltirgan edilar. “Ali Şir Nevai'nin eserleri ve kültürel etkileri (Alisher Navoiy asarlari va madaniy ta'siri)” nomi bilan ushbu to'plam 2023-yil Abdurahmon Guzel bosh muharrirligida Boshkent universiteti nashriyoti tomonidan nashr qilingan bo'lib, ushbu to'plamda Alisher Navoiy ta'sirlantirgan madaniyat va muhit, shoir asarlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, hazrat Navoiyning turk va dunyo adabiyotidagi o'rni, buyuk mutafakkir shoir adabiy merosiga oid turli mavzularda olib borilgan ilmiy kuzatishlar natijalariga tegishli ko'plab salmoqli maqolalar joy olgan.



Shuningdek, prof.Dr. Abdurahmon Guzel o'z tashabbusi va g'oyasi asosida Turkiyada Alisher Navoiy haykali tayyorlanayotganligi, ushbu haykalning ochilish marosimiga otayurtdan navoiyshunos olimlarni taklif qilib, nufuzli bir konferensiya tashkil qilish maqsadida ekanligi

haqidagi quvonchli xabarni bergan edi. Shuningdek, Alisher Navoiy haykalini xayolan qanday tasavvur qilishi va qog'ozga tushirilgan holatini ko'rsatgan edilar. Oradan ko'p o'tmay, qisqa fursat ichida ustozning bu orzusi amalga oshdi. Turkiyaning poytaxti bo'lmish Anqara shahrida Alisher Navoiy haykali ochildi. Haykalning ochilish marosimi "Bir bo'lsak-yagona xalqmiz, birlashsak-Vatanimiz!" shiori ostida bo'lib o'tayotgan O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar doirasida tashkil etildi. Ochilish marosimida yurtimizning Turkiyadagi elchisi A.A'zamxo'jayev ishtirok etib, bu muhtasham yodgorlikni o'rnatishga qissa qo'shgan barchaga, xususan, Boshkent universiteti qoshidagi Alisher Navoiy ilmiy-tadqiqot markazi rahbari Abdurahmon Guzelga minnatdorchilik bildirdi. Shu paytgacha Moskva, Dushanbe, Ostona, Tokio, Minsk, Shanxay, Seul, Boku kabi shaharlarda Alisher Navoiyga haykallar o'rnatilganligi, Anqarada bu yodgorlikning ochilishi turkiy xalqlar uchun katta sharaf ekanligini alohida ta'kidladi.



ALISHER NAVOIY HAYKALI. KECHIO'REN, ANQARA, TURKIYA.

Haykal 2024-yilda Kechio'ren tumanida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi do'stlik hamda ma'naviy hamkorlik ramzi sifatida o'rnatilgan.



Foto: O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi

Prof.Dr.Abdurahmon Guzel ustoz haqida qisqacha ma’lumot beradigan bo‘lsak, Turkiyaning turizm sohasi rivojlangan hududlaridan biri Antalyada tug‘ilib, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim hamda litseyni tugatgach, 1966-yilda Germaniyada bo‘lib bir yil davomida “Goethe-Institut Grafrath/Obb ve Rothenburg/Odt”da nemis tilini o‘rganadi. 1970-yilda Viyana universitetining Adabiyot fakulteti, Turkologiya bo‘limini tamomlaydi. 1973-yilda shu universitetning doktorantura bosqichini tamomlab, doktorlik unvonini oladi. 1974-yildan Hajettepa univesitetida turk tili va adabiyoti bo‘limi o‘qituvchisi sifatida faoliyatini boshlaydi. 1985-yilda Gazi universitetida faoliyatini davom ettirib, Turkiya va Germaniya universitetlari o‘rtasidagi ko‘plab ilmiy loyihalar, hamkorlik ishlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. 1989-1994-yillarda Milliy ta’lim vazirligining Ta’lim va tarbiya bo‘limi a’zosi, 1994-1998-yillarda Chanakkale O‘nsekiz Mart universiteti rektori, 1998-2001-yillarda Girne Amerika universiteti, 2001-2003-yillarda Gazi universiteti professori sifatida faoliyat yuritgan Abdurahmon Guzel hozirda Boshkent universitetida til, tadqiqot markazi, shuningdek, Alisher Navoiy ilmiy taqdiqot markazi mudiri sifatida ish olib bormoqda. E’tiborli jihati mas’uliyatli lavozimlarda faoliyat olib borish davomida ustoz tomonidan nashrga tayyorlangan monografiyalar, darsliklar soni hamda sifati kishini hayratlantiradi. Prof.Dr.Abdurahmon Guzel muallifligida “Hacı Bektaş Veli Hayati, Eserleri ve Fikirleri” (1998), “Türk Halk Edebiyatı El Kitabı”, “Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretimi” (2016), “Hacı Bektaş Veli ve Makalat” (2002), “İki Dilli Türk çocuklarına Türkçe öğretimi: Almanya örneği” (2010), “Abdal Musa Velayetnamesi” (1999), “Dini Tasavvufi Türk Halk Edebiyatı” (1999), “Kaygusuz Abdal’in mensur eserleri” (1983), “Dini-Tasavvufi Türk Edebiyatı”(1999), “Türkçe Öğretimi El Kitabı” (2014), “Ahmed Yesevi’nin Fakr-Name’si üzerine bir inceleme” (2017), “Hacı Bektaş Veli El Kitabı” (2011) kabi o‘ndan ziyod darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar, 200 dan ziyod turk adabiyoti, madaniyati va turkologiya masalalariga oid ilmiy maqolalari nashr qilingan. Ana shulardan biri “Türk Halk Edebiyatı El Kitabı (“Turk xalq adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi)” bo‘lib, “Akçağ” nashriyoti tomonidan 2021-yilda 12-marotaba qayta to‘ldirilgan holatda nashr qilingan. O‘quv qo‘llanma 568-sahifadan iborat bo‘lib, adabiyot bilan bog‘liq tushunchalar, til, madaniyat aloqalari, turk xalq adabiyotini o‘rganishda foydalanilgan manbalar, turk folklorshunosligi tushunchasi, tarixiy taraqqiyoti, folklorshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, turk xalq adabiyoti tadqiqot metodlari, turk xalq adabiyotining ta’rifi va xususiyatlari, turk xalq she’rlarida shakllar, nazm turlari, xalq adabiyotidagi nasriy janrlar, dostonlar, xalq

hikoyalari va xalq teatri, turk xalq baxshichilik adabiyoti, baxshichilik vakillari, turk xalq adabiyoti turlari va turkchanning o'rganilishi, turk xalq adabiyotini o'qitish metodlari, boshlang'ich va o'rta ta'lim dasturlarida xalq adabiyoti mavzulari tavsifi, diniy-tasavvufiy turk adabiyoti, nazm turlari va xalq shoirlari namoyandalari hayoti va ijodi haqidagi batafsil ma'lumotlar qamrab olingan. Bu o'quv qo'llanmaning ahamiyatli jihati shundaki, oliy ta'lim bosqichidagi filologiya fakulteti talabalari hamda folklorshunoslik va dialektologiya yo'nalishida tahsil olayotgan magistrantlar uchun asosiy darslik sifatida foydalanish bilan bir qatorda, o'rta ta'lim maktablarida ham xalq og'zaki ijodiga oid mavzularni o'qitish metodlari bo'yicha ham amaliy ko'rsatmalar berilganligidir. Bu qo'llanmaning 2003-yilda nashr qilingan 1-nashri bilan qiyoslaganimizda bejizga qayta-qayta, 12 marotaba nashr qilinmaganligiga guvoh bo'ldik. 1-nashr 445-sahifadan iborat bo'lib, olti bo'limni o'z ichiga olgan. Kitobning kirish qismida tarix davomida turk xalq adabiyoti ta'limiga oid asosiy tushunchalar, adabiy asar xususiyatlari, ahamiyati, til-madaniyat-adabiyot munosabatlari, adabiyot tadqiqot yo'nalishlarining boshqa ilmiy sohalar bilan aloqasi, turk xalq adabiyoti foydalangan asosiy manbalarga ajratilgan bo'lib, ilk davrlarda vujudga kelgan og'zaki va yozma asarlar, Orxun-Enasoy obidalari, "Devonu lug'otit-turk", "Qutadg'u bilig", "Qo'rquq Ota" kitobidan tortib, XIII asrdan XX asrgacha bo'lgan davr oralig'ida Anado'lida yashagan Mutasavvuf hayoti va adabiy merosi haqida ma'lumot beradi. Bu qo'llanmaning mavzular ko'lami, keng qamrovliligi, ma'lumotlarning aniq va lo'ndaligi o'quvchilar talabining ortishiga sabab bo'lgan deb o'ylaymiz.



Turkiyada navoiyshunoslik rivojiga munosib hissa qo'shish barobarida prof.dr.Abdurahmon Guzal faoliyatining nihoyatda kengligi, samaraliligi havas qilsa arzigulikdir. 2025-yilning 23-25-oktabr sanalarida Turkiyaning Bartin universitetida bo'lib o'tgan "ULUSLARARASI DÜNYA DİLİ TÜRKÇE" XVII sempoziyumu ishtirok etib, Abdurahmon Guzal ustoz bilan yanada yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu konferensiyaning Turkiya miqyosida an'anaviy tarzda XVII marotaba o'tkazilayotganligi hamda prof.Dr.Abdurahmon Guzal bosh tashkilotchilardan ekanligi, ustozning ona tili jonkuyari ekanligi, turkiy til taraqqiyoti uchun tinimsiz faoliyat olib borayotganligining yaqqol dalilidir.



Ilm yo‘liga qadam qo‘yayotgan har bir tadqiqotchi uchun mana shunday barakali va sermahsul ijod nasib qilishini, prof.dr.Abdurahmon Guzal ustozga esa yana uzoq yillar navoiyshunoslik, turkologiya sohasida yetuk shogirdlar tayyorlab, qardosh xalqlarimiz orasidagi ilm-ma‘rifat rishtalarini mustahkamlash yo‘lida nufuzli xalqaro konferensiyalar, darslik va monografiyalar kutib qolamiz.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Güzel, A. (1996). Vidin Türkleri (Dil, din ve folklor).
2. Güzel, A. (1997). Eğitim fakültelerinde Türkçe'nin eğitimi ve öğretimi bölümü ve anabilim dalları.
3. Güzel, A. (2018). Graft teorisiyle Türkçe Öğretimi. Akçağ Yayınları.
4. Güzel, A. (2020). Üniversiteler için Türk dili I–II ders kitabı. Başkent Üniversitesi.
5. Güzel, A. (2023). Prof. Dr. Abdurrahman Güzel ile Türk dili, edebiyat ve uluslararası kültür kongresi üzerine bir söyleşi (Söyleşi).
6. Güzel, A. (t.y.). İki dillilere Türkçe'nin eğitimi öğretiminde izlenecek metodoloji.
7. Güzel, A. (t.y.). Türk dili ve edebiyatı ders kitabı: Edebiyat I–IV (Müşterek imzalı).
8. Güzel, A. (t.y.). Türkçe'nin eğitimi ve öğretimi'nde metodoloji.
9. Güzel, A., ve Karatay, H. (2019). Türkçe öğretimi el kitabı. Pegem Akademi.
10. Navoiy, A. (2000). Muhokamat ul-lug‘atayn (MAT, 16. Cilt). Fan.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru